

## YOSHLARNI INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARDAGI AXBOROT XURUJLARIDAN ASRASHNING DOLZARB MASALALARI

**Aminov Sharif Nasimovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti, (PhD)*

**Mirsalixova Guzal Aloutdinovna**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Mazkur ilmiy maqolada yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan himoya qilishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar, xususan, destruktiv g'oyalar, feyk xabarlar va psixologik ta'sir mexanizmlari yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, yoshlarni axborot xatarlaridan muhofaza qilishda davlat siyosati, ta'lim tizimi va oila institutining o'rni yoritilgan. Maqolada axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yoshlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xuruji, axborot xavfsizligi, feyk xabarlar, mediasavodxonlik, psixologik ta'sir, globallashuv, tarbiya, profilaktika.*

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, ayniqsa yoshlar orasida axborot almashinuvining asosiy vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa-da, bu jarayon ularni turli xil axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar ta'siriga tushish ehtimolini ham oshirmoqda.

Axborot xurujlari orqali yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni muayyan g'oya va qarashlarga yo'naltirish holatlari global muammoga aylanib bormoqda. Ayniqsa, feyk xabarlar, yolg'on axborotlar, ekstremistik va destruktiv mazmundagi kontentlarning tarqalishi yoshlarning dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan yoshlarni internet makonidagi axborot xatarlaridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada davlat, ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta'minlamoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog'ida axborot tarqatish va ma'lumot izlash imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 31 milliondan oshgan bo'lib, shundan 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda.

Shu bilan birga, huquqbuzarlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kun sayin ortib bormoqda.

Xususan, so'nggi olti yilda yurtimizda kiberjinoiyatlar bo'yicha murojaatlar soni 48 baravarga oshgan. O'tgan yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 82 foizi, o'g'irlik jinoyatlarining 76 foizi kibermakonda sodir etilgan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 2 trillion so'mdan oshgan.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laming keskin darajada o'sishiga olib keldi.

Globalashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet tarmog'i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmash zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o'rganadi va shu asosda "nishon"ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega

bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi "fatvo"larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Shuning bilan birga, bugungi kunda aksariyat yoshlarning qo'lida internetga ulangan zamonaviy uyali aloqa vositalari mavjud. Bu hol ularning yuqorida sanab o'tilgan turli xil ijtimoiy tarmoqlarga bevosita ulanish, do'stlari va tanishlari bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beradi. Ayni paytda, statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p yuklab olinayotgan dastur ichida "WhatsApp", "Telegram" tarmoqlari yetakchi o'rinni egallaydi. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, mazkur tarmoqlarda millatlar va dinlar o'rtasida adovatni keltirib chiqaruvchi, nizoli vaziyatlarga sabab bo'luvchi, shuningdek, insonlar orasida vahima uyg'otishga qaratilgan ig'vo, fitna-fasod xabarlarining keng tarqatilayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida urfga aylangan mazkur muloqot tizimidan diniy-ekstremistik oqim a'zolari ham unumli foydalanmoqda. Chunki internet orqali aloqa bog'lashning osonligi, foydalanuvchilar sonining ko'pligi, aloqaning anonimligi, tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi, axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi, faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi terrorchi guruhlar uchun o'z tarafdorlari sonini ko'paytirishning qulay jihatlaridan biri hisoblanadi. Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011 yildan boshlab, Toshkent islom universiteti bakalavriat va magistraturaning barcha yo'nalishlarida "Axborot iste'moli madaniyati" nomli maxsus kursning o'qitilishi joriy etildi.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo'lmaganda "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Nima uchun uzatayapti?" va "Qanday maqsadda uzatayapti?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin.

Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

“Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi”, degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Diniy ekstremizm va terrorismga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Globallashuv jarayonida zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarning tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarning takomillashuviga turtki bo'lib, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etishiga olib keldi.

Mafkuraviy xavfsizlik – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan kafolatli himoyalanganligidir. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash deganda, jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, o'zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdek jarayonlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, odamzodni hamisha tashvishga soluvchi mazkur salbiy illatlarning ildizlari, uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buyuk ajdodlarimiz ularga qarshi kurashda sermazmun va purhikmat so'z qudratidan unumli foydalanganlar. Ma'naviyatni yuksaltirish, xususan, kelajagimiz bo'lgan yoshlar axloqini yuksak insoniy fazilatlar bilan boyitish davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu sababli tariximizda bitilgan bebaho merosimizni chuqurroq o'rganish va ularni xalqimiz e'tiboriga havola qilish olimlarimiz oldida turgan mas'uliyatli vazifalardandir.

Qayd etilgan fikrlar hozirgi davrda inson hayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining o'rnini va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bilimlar mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri hisoblanishini ham qayd etish lozim.

Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadi va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladi. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari diniy mutaassiblikka qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'rnini katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini, to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy g'oya ruhi bilan yo'g'irilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr talablariga hozirjavobligini ta'minlash esa, har birimiz va barchamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli mafkuraviy immunitet va yuksak ma'naviyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida yangi davr va rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, milliy va diniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar tiklanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillik yillarida yosh avlodni dunyoviy hamda diniy bilimlar uyg'unligida, ajdodlar ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari asosida tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Binobarin, ertangi kun egalari bo'lgan yoshlar bugungi kunning eng ilg'or dunyoviy bilimlarini diniy qadriyatlar bilan hamohang tarzda puxta o'zlashtirgan bo'lishi hamda ulardan amaliyotda erkin foydalana olishi masalasi bugungi kunimizning asosiy talablaridan biriga aylandi.

Diniy qadriyat juda keng ma'noga ega bo'lib, o'z ichiga millatlararo totuvlik, ijtimoiy va diniy bag'rikenglik, o'zaro hamkorlik, olijanoblik, saxiylik kabi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni qamrab oladi. Aynan diniy bag'rikenglik, ya'ni har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarash, sabr-bardosh va toqatli bo'lish o'z navbatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'pgina ixtiloflarning oldini olishga xizmat qiladi. Zero, bag'rikenglik ruhida tarbiya topgan farzand ongida o'zga madaniyatlardan hurkib turish emas, balki ularga kengfe'llik bilan qarash va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, o'zaro tushunish instinkti shakllanadi.

Yoshlardagi milliy o'zlikni anglash, diniy bilim va dunyoqarashni shakllantirishda har bir urf-odat, marosim, an'ana va qadriyatlarimizning kelib chiqishi, asl mohiyatini

ochib bera oladigan ham ilmiy, ham diniy asoslardan ma'lumotlardan iborat zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar namoyish qilish kabi tadbirlar orqali ijobiy natijaga erishish muhim omillardan sanaladi. Chunki bunday chora-tadbirlar ma'lum ma'noda yoshlar ongini boyitish, haqiqiy milliy va diniy qadriyatlar bilan har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siriga, ekstremistik va terrorchi guruhlarning aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarni milliy urf-odat, an'ana va marosimlarimizga hurmat bilan qarash, ularning tarbiyaviy ahamiyatini doimiy tarzda tushuntirib borish, ma'naviy tahdidlardan himoya qilish hamda o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yoshlarni ilm-ma'rifatli, turli sohalarda yetuk mutaxassis, jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilgan ekan, mazkur imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish, jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir shaxsning burchidir. Buning uchun esa, ular avvalo, dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish, shuningdek, o'zbek xalqining mehnatsevarlik, oilani muqaddas bilish, insonlarga mehribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarini o'zida shakllantirishi talab etiladi.

Zero, islom dinida ham yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Qur'oni karimda mingdan ortiq oyatlar odob-ahloq, tarbiya va ilmga aloqadorligi insonni barkamollikka yetaklaydigan mezon sifatida ko'rish mumkin. Xalqimiz qoniga singib ketgan diniy qadriyatlarda farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi xususida Payg'ambar Muhammad (alayhis-salom) "Kishi farzandining tarbiyasi bilan har kuni yarim soat shug'ullanishi sadaqa berishdan yaxshiroqdir" deb ta'kidlaydilar. Bundan ko'rinib turibdiki, islom dini farzand tarbiyasiga yoshligidan to'ulg'ayguncha alohida e'tibor qaratadi. Ularning nafaqat ilm olishlarini, balki yuksak odob-axloq sohibi etib tarbiyalashni asosiy mezon sifatida qo'yadi.

Umuman olganda, yoshlarni bunyodkorlik ruhida tarbiyalash, beg'ubor qalbini olijanoblik, xayru saxovat, mehr-oqibat kabi sof va pokiza tuyg'ular bilan to'ldirish, ezgu maqsadlarga safarbar etish, buzg'unchi, zo'ravon, xudbin, bag'ritosh va qahri qattiq bo'lib tarbiya topishining oldini olishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan xulosa qilib aytish mumkinki, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- mustaqil fikrga ega, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiyalash, yoshlar qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirish orqali har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish;

- mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash, go'yoki islom dinini o'rgatishni va'da qilayotgan shubhali shaxslar bilan muloqot qilmaslik, noqonuniy tarzda chop etilgan yoki tayyorlangan diniy mazmundagi adabiyot, disk, mobil telefonlardagi materiallardan foydalanmaslik va olib yurmaslik, internet

tizimida diniy ekstremizm, terrorizm va missionerlikni targ'ib qiladigan saytlardan yoshlarni muhofaza qilish;

– yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarni kamol toptirishda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi asosida ish tashkil etish;

– bugungi axborotlar almashinuvi jadal kechayotgan vaqtda diniy masalalarga oid ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish va unga e'tiqod qilishga shoshilmaslikni tavsiya va targ'ib qilish hamda axborot xurujlari asiriga aylanmaslik lozim;

– kishilarda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, o'zaro birodarlik, millatlararo totuvlik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish, mahalla aholisi o'rtasida dinlararo turli ziddiyatlarni yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borish;

Demak, axborot kurashi avj olgan XXI asrda din niqobi ostidagi turli xil ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlardan himoya etishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlarni yosh avlodga yetkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bunda "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Аминов Ш. Н. Жиноятларни «иссиқ изидан» фош этишда тезкор-техник воситаларни қўллаш фаолиятини такомиллаштириш //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2026. – Т. 5. – №. 49. – С. 10-18.

3. Аминов Ш. Н., Асрақулов М. М., Мирсалихова Г. А. Киберфирибгарликни фош этишда тезкор хизмат ходимлари томонидан амалга ошириладиган ҳамкорликнинг айрим жиҳатлари //FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2026. – Т. 14. – №. 2. – С. 149-159.

4. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ривожланган хорижий давлатларда вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашишнинг илғор тажрибаси //World of science. – 2025. – Т. 8. – №. 3. – С. 129-137.

5. Аминов Ш. Н. Понятие и особенности преступлений кибертерроризма //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 21-27.

6. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашиш самарадорлигига эришишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Special Issue. – С. 35-40.

7. Таштемиров А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик жиноятларининг тавсифи ва ўзига хос хусусиятлари // Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 25-32.

8. Aliqolovich T. A. et al. “Al-Xorazmiy” mahallasi misolida profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida “mahalla yettiligi” bilan hamkorligining strategik modellari va huquqiy asoslari // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2026. – Т. 5. – №. 40. – С. 14-21.

9. Aliqolovich T. A. et al. Haqorat bilan bog'liq jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olishda media makonni monitoring qilishning ahamiyati // Journal of innovations in scientific and educational research. – 2026. – Т. 9. – №. 3. – С. 48-54.

10. Таштемиров А. А., Комилов А. М. О 'Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

11. Asilbek O'tkir o'g N. et al. Ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga sud organlari tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari // Ijodkor o'qituvchi. – 2025. – Т. 5. – №. 54. – С. 11-17.

12. Мирзахмедов А. М., Аминов Ш. Н., Холматов Ф. М. Таълим сифати-ижтимоий тараққиёт омили // Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 424-432.

13. Холматов Ф. М., Аминов Ш. Н. Фарғона водийсида жадидлик: миллий маданият муаммолари // Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 848-856.